

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI
VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**



**12.00.17. – “Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan
keyingi ta’lim institutiga kirish imtihoni**

DASTURI

TOSHKENT – 2026

Tuzuvchilar:

O.T. Xusanov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, y.f.d.

Sh.G‘. Asadov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, y.f.d.

D.G‘. Raximov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti v.b., y.f.f.d.

F.U. Yuldasheva – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti v.b., y.f.f.d.

Taqrizchilar:

X.S. Xayitov – y.f.d., professor

D.M. Bekchanov – y.f.f.d., dotsent

KIRISH

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mutaxassislarining malakaviy darajasini ko‘tarish va xalqaro andozalarga mos keluvchi kadrlarning yangi avlodini shakllantirishni talab etadi. So‘nggi yillarida mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha turlarini, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha aniq maqsadli keng miqyosdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan oliy ta‘limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriyat va magistratura ta‘lim dasturlari shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoniga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erishilgan sur‘atlar oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limning bir bosqichli tizimi sharoitida orttirilgan tajribaning mohiyatini qator xorijiy mamlakatlarning mazkur sohadagi ilg‘or amaliyotini hisobga olgan holda qayta anglash zarurligini taqozo etmoqda. Hozirgi sharoitda ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonini tobora jadal rivojlantirish va sifatini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, oliy ta‘lim va ilmiy muassasalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va undan respublikaning innovatsion rivojlanishida samarali foydalanish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shundan so‘ng Hukumat qaroriga asosan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limga qo‘yiladigan davlat talablari”, “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim to‘g‘risidagi nizom” qabul qilindi.

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-78-son Farmoni asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 12.00.17. – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, Konstitutsiyaviy huquq, Ma‘muriy huquq, Moliya huquqi, va Bojxona huquqi fanlarida ko‘zda tutilgan masalalarni qamrab olgan hamda oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kiruvchilarning ushbu fanlardan nazariy va amaliy bilimlarini atroflicha baholash maqsadida tuzilgan.

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvi

“Boshqaruv” tushunchasi va turlari. Boshqaruv metodologiyasi va usullari. Boshqaruvda tizimli yondashuv. Davlat boshqaruvi nazariyasi: maktablar, yo‘nalishlar. Davlat boshqaruvi mazmuni va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Davlat boshqaruvi elementlari. Davlat boshqaruvining asosiy va tashkiliy-funksional prinsiplari. “Davlat boshqaruvi funksiyalari” tushunchasi va turlari. Davlat boshqaruv tizimida kadrlarni tanlash va tayinlash mexanizmi. Davlat tizimida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar.

“Davlat boshqaruvi subyektlari” tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvi subyektlarining huquq va muomala layoqati. Davlat boshqaruvining individual subyektlari (fuqarolar, davlat xizmatchilari). Davlat boshqaruvining kollegial subyektlari (davlat organlari, nodavlat tashkilotlar). Davlat boshqaruvi subyektlari huquqlarini himoya qilish.

“Ijro hokimiyati” tushunchasi va tizimi. Ijro hokimiyati va davlat boshqaruvining o‘zaro munosabati. Ijro hokimiyati tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tutgan o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatining tashkiliy shakllari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tuzilishi.

“Davlat organlari” tushunchasi va xususiyatlari. Davlat boshqaruvi organlari va ularning davlat mexanizmida tutgan o‘rni. Davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari. Davlat boshqaruvi organlarining tasnifi. Davlat boshqaruvi

organlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlari va vazifalari. Markaziy va mahalliy boshqaruv organlarining oʻzaro munosabatlari.

“Davlat boshqaruvi faoliyatining maʼmuriy-huquqiy shakllari” tushunchasi va xususiyatlari. Huquqiy va nohuquqiy shakllar. Davlat boshqaruvi aktlari. Maʼmuriy-huquqiy shartnomalar. Yuridik ahamiyatli xatti-harakatlar. Davlat boshqaruvi faoliyatining maʼmuriy-huquqiy usullari mazmuni va turlari. Ishontirish davlat boshqaruvi usuli sifatida. Majburlash davlat boshqaruvi usuli sifatida.

Vazirlar Mahkamasining huquqiy maqomi. Vazirlar Mahkamasi vakolatlari va masʼuliyatini kuchayib borishi. Bosh vazir mavqeyi, uning vakolati va masʼuliyati.

Maʼmuriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi. Tartibga solishning maʼmuriy-huquqiy usuli. Maʼmuriy huquqning Oʻzbekiston Respublikasi huquq tizimida tutgan oʻrni. Maʼmuriy huquq tizimi. Maʼmuriy huquq manbalari. Maʼmuriy islohotlar konsepsiyasi. Maʼmuriy tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar.

“Maʼmuriy jarayon” tushunchasi va uning oʻziga xos xususiyatlari. Maʼmuriy yurisdiksiya: asosiy xususiyatlari, prinsiplari, tuzilishi. Maʼmuriy jarayon prinsiplari. Maʼmuriy jarayon subyektlari va ularning huquqiy maqomi. “Maʼmuriy-protsessual normalar” tushunchasi va turlari. Maʼmuriy-protsessual munosabatlar va ularning oʻziga xos xususiyatlari.

Maʼmuriy huquqning tizimi, instituti va asosiy kategoriyalari. Maʼmuriy-huquqiy meʼyorlarning huquqiy tabiatini aniqlash mezonlari. Maʼmuriy huquq manbalari tizimi va ularning yuridik kuchi. Maʼmuriy normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va ularni qoʻllash tartibi. Maʼmuriy huquqning umumiy va maxsus tamoyillari. Davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va protsessual adolat tamoyillari. Maʼmuriy-huquqiy munosabatlar subyektlarining huquqiy maqomi. Davlat boshqaruvi organlarining vakolatlarini belgilashning nazariy-huquqiy mezonlari.

Davlat boshqaruvi tizimining huquqiy kategoriyasi va strukturaviy belgilarini aniqlash. Davlat boshqaruvi tizimini tashkil etishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari. Ijro etuvchi hokimiyat tizimining huquqiy modeli va tashkiliy tuzilishi. Markaziy va hududiy boshqaruv organlarining vakolatlari huquqiy taqsimoti. Davlat boshqaruvida vertikal va gorizontal boshqaruv tamoyillari. Davlat boshqaruvi organlarining tashkiliy-huquqiy shakllari va ularning normativ mustahkamlanishi. Davlat boshqaruvi shakllari: huquqiy (normativ hujjatlar qabul qilish, individual huquqiy aktlar chiqarish), nohuquqiy (tashkiliy-faoliyat koʻrinishidagi tadbirlar), tashkiliy shakllar (majlislar, komissiyalar, maslahat organlari faoliyati) kabi shakllarning nazariy-huquqiy tahlili. Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning normativ-huquqiy bazasi. Davlat boshqaruvi faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini taʼminlovchi huquqiy mexanizmlar. Davlat boshqaruvi tizimini baholashning normativ-indikativ mezonlari va metodik asoslari. Raqamli davlat boshqaruvining huquqiy asoslari.

Davlat boshqaruvi jarayoni tushunchasi va uning huquqiy belgilanishi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning huquqiy shakllari va protseduralari. Boshqaruv faoliyatida qoʻllaniladigan huquqiy shakllar: normativ-huquqiy aktlar, individual-huquqiy aktlar, protsessual hujjatlar, vakolat berish aktlari. Ruxsat berish faoliyatining (licensing-permitting) huquqiy asoslari va tartib-taomillari. Davlat xizmatlari koʻrsatish jarayonini tartibga solishning zamonaviy modellari. Jamoatchilik nazorati, ochiq maʼlumotlar, monitoring va auditning huquqiy shakllari.

Maʼmuriy-huquqiy munosabatlar tushunchasi, subyektlari, obyektlari va mazmuni. Maʼmuriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, oʻzgarishi va tugashining yuridik asoslari. Maʼmuriy protsessual tartib, jarayon ishtirokchilari va ularning huquqiy kafolatlari. Maʼmuriy-huquqiy nizolarni hal etishning huquqiy mexanizmlari, vakolatli organlar va protseduralari.

Davlat boshqaruvi sohasida olib borilayotgan normativ-huquqiy islohotlarning konstitutsiyaviy asoslari. Islohotlarning maqsadi, vazifalari va boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishdagi oʻrni. Ijro etuvchi hokimiyat faoliyatida oshkorlik, hisobdorlik va jamoatchilik nazorati institutlarini kuchaytirish natijalari. Hududiy boshqaruv tizimini optimallashtirish, vakolatlarni qayta taqsimlash va subsidiarlik tamoyilini joriy etish tajribasi. Islohotlarning amaliy natijalari: samaradorlik koʻrsatkichlari, davlat xizmatlari sifati, byurokратиyaning qisqarishi va boshqaruv samaradorligining oshishi.

Huquqiy davlat konsepsiyasi va uning ma'muriy huquq bilan nazariy bog'liqligi. Ma'muriy huquqning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro ta'sir mexanizmlari. Ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik tamoyillarining ma'muriy huquqdagi o'rni. Fuqarolarning ma'muriy jarayonlarda ishtiroki: jamoatchilik eshituvlari, takliflar, jamoatchilik kengashlari faoliyatining huquqiy asoslari. Ma'muriy protseduralarning huquqiy davlatni shakllantirishdagi ahamiyati. Ma'muriy sudlarning huquqiy davlat tamoyillarini ro'yobga chiqarishdagi o'rni.

Davlat organlarining ma'muriy javobgarlikka tortish vakolatlarining konstitutsiyaviy va normativ asoslari. Ma'muriy javobgarlik choralari turlari, qo'llanish shartlari va protsessual tartibi. Ma'muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va javobgarlikni qo'llashda davlat organlarining huquqiy shakllari (normativ aktlar, individual qarorlar). Davlat organlarining nazorat faoliyati: moliyaviy, idoraviy, tashqi va ichki nazorat turlari. Monitoring faoliyatining huquqiy asoslari, indikatorlar, mezonlar va samaradorlik baholash tizimi. Idoraviy nazorat va jamoatchilik nazorati o'rtasidagi huquqiy farqlar. Ma'muriy javobgarlikni qo'llashda ochiqlik, xolislik va protsessual adolat tamoyillari.

Jamoatchilik ishtirokining konstitutsiyaviy tamoyillari. Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilikning asosiy normalari. Jamoatchilik eshituvlari, muhokamalari va jamoatchilik kengashlarining huquqiy maqomi. Qonunchilik tashabbusida fuqarolarning ishtiroki mexanizmlari. Davlat organlari faoliyati bo'yicha ochiq ma'lumotlar tizimining huquqiy asoslari. Fuqarolarning davlat qarorlarini qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlovchi protsessual tartiblar.

O'zbekistonda davlat boshqaruvini isloh qilishning konstitutsiyaviy bosqichlari. "Yangi O'zbekiston" davridagi boshqaruv islohotlarining maqsadlari va tamoyillari. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining huquqiy asoslari va bosqichlari. Ma'muriy islohotlar konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlari. Raqamli boshqaruv va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha normativ jarayonlar. Hududiy boshqaruvni takomillashtirish, mahalliy ijro etuvchi organlarning vakolatlarini qayta belgilash. Qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, byurokратиyani qisqartirish va davlat xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha huquqiy islohotlar.

Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonining umumiy nazariy asoslari. Qonunchilik tashabbusi subyektlarining vakolatlari va ularni amalga oshirish tartibi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashning ilmiy-huquqiy talablari. Huquqiy monitoring, huquqiy ekspertiza va korrupsiyaga qarshi ekspertiza tartibining huquqiy asoslari. Normativ-huquqiy hujjatlarning ta'sirini baholash (RIA) mexanizmi. Qonunlar loyihalarini muhokama qilish jarayonida jamoatchilik ishtiroki. Qonunchilik jarayonida parlament va hukumatning o'zaro hamkorlik mexanizmlari.

Mahalliy boshqaruv

Mahalliy boshqaruv tushunchasi. Davlat va mahalliy boshqaruvning o'zaro nisbati. O'zini o'zi boshqarish tushunchasi. Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqarish. Mahalliy boshqaruvning huquqiy asoslari. Mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini transformatsiyasi va mahalliy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida yo'lga qo'yish.

Mahalliy darajada hokimiyatlar bo'linishi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlar tizimi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari tizimi. Mahalliy boshqaruvda hokimiyatlar bo'linishi va bir-birini tiyib turish mexanizmi. Vakillik nazorati tushunchasi va ahamiyati. O'zbekistonda "kuchli Kengash va hisobdor hokim" konsepsiyasini amalda qo'llash masalalari.

Xalq deputatlari Kengashlarining konstitutsion vakolatlari. Viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlarining konstitutsion vakolatlari. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vertikal va gorizontal boshqaruv bo'yicha funksional vazifalarini taqsimlash. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar kompetensiyalarini ajratish sohasidagi islohotlar mazmuni.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishning huquqiy asoslari. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov prinsiplari. Mojaritar saylov tizimi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovi organlari tizimi. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov jarayoni.

Mahalliy kengashlar tuzilishi va faoliyatining tashkiliy shakllari. Mahalliy Kengash raisi va uning vakolatlari. Mahalliy Kengashlar kotibiyati va uning vazifalari. Sessiya tushunchasi va uni o'tkazish tartibi. Sessiyani chaqirish. Kquorum va uning shakllari. Sessiya kun tartibini shakllantirish. Sessiyani jarayoni. Sessiyada qarorlar qabul qilish tartibi. Doimiy va muvaqqat komissiyalar faoliyatini tashkil etish. Siyosiy partiya guruhlarini faoliyatini tashkil etish.

Deputat mandati va uning shakllari. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatining huquqlari. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatining majburiyatlari. Deputat so'rovi va uni yuborish tartibi. Deputatlarni saylov okrugidagi faoliyati. Deputat daxlsizligi va uni olib tashlash tartibi. Deputat faoliyatining ijtimoiy kafolatlari. Deputatlik faoliyatini muddatidan oldin tugatish. Deputatni chaqirib olish.

Viloyat hokimlarini tayinlash va lavozimidan ozodi etish. Tuman hokimlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish. Viloyat va tuman, shahar hokimlarini tayinlash va lavozimidan ozod etish. Hokimlik apparatini shakllantirish. Vazirlik va idoralarning hududiy boshqarma va bo'limlarini shakllantirish va tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar turlari va ularning yuridik tabiati. Mahalliy Kengashlar qarorlarini ijrosini ta'minlash. Mahalliy Kengashlar qarorlarini bekor qilish. Hokim qarorlarini qabul qilish tartibi. Hujjat loyahasini tayyorlash. Loyihani muhokama qilish. Qabul qilish. Hokim qarorlari ijrosini ta'minlash. Hokim qarorlarini bekor qilish.

Hokimning funksiyanal vazifalarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari. Hokim o'rinbosarlari funksiyanal vazifalari. Sektorlar ishini tashkil etish. Hokim va uning o'rinbosarlarining mahalliy Kengashlar oldidagi hisobdorligi. Fuqarolar yig'ini oldidagi hisobdorlik. Hokimlik apparati tuzilmasi. Hokimlik kotibiyatlari. Hokimlik faoliyatining tashkiliy shakllari: hokimlik apparati yig'ilishi, hokimlik soati, foallar yig'ilishi. Hokimlik huzuridagi komissiyalar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorligi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining siyosiy partiyalar bilan hamkorligi.

Boshqaruvni nomarkazlashtirish modellari. Dekonsentratsiya, delegatsiya va devolyutsiya. Nomarkazlashtirishning ijtimoiy zaruriy omillari. Boshqaruvni nomarkazlashtirish shartlari. Boshqaruvni nomarkazlashtirishdagi to'siqlar. Boshqaruvni nomarkazlashtirish bosqichlari. Boshqaruvni nomarkazlashtirish bo'yicha IHRT tavsiyalari. Dekonsentratsiya, delegatsiya va devolyutsiya. Xorijiy mamlakatlarda boshqaruvni nomarkazlashtirish amaliyoti.

O'zbekistonda boshqaruv vakolatlarni quyi tizimga o'tkazishning ustuvor yo'nalishlari. Mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'pri"ka aylantirish. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida mahalla "yettiligi" tizimi va uni takomillashtirish.

Davlat xizmati

Davlat xizmatning umumiy tushunchasi va turlari. Davlat xizmatining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Davlat xizmati tushunchasining tarkibiy elementlari. Davlat xizmatining turlari. Fuqarolik davlat xizmati. Harbiy xizmat. Alohida sohalardagi davlat xizmatining xususiyatlari. Siyosiy hokimiyat va davlat xizmati. Davlat boshqaruvi davlat xizmatining asosiy funksiyasi sifatida.

O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati faoliyatini huquqiy tartibga solinishi. Uni isloh etish zarurati, maqsadi va vazifalari. O'zbekistonda mustaqillikdan keyin davlat xizmati institutini huquqiy asoslarini rivojlanish bosqichlari. Davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari va ularning mazmun hamda mohiyati.

Davlat xizmatchilari mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari. Davlat xizmatchilari huquqiy maqomining asoslari. Davlat xizmatchilarining huquqlari. Davlat xizmatchilarining majburiyatlari. Davlat xizmatida o'rnatilgan talablar (taqiqlar, cheklovlar). Davlat xizmatchilari uchun o'rnatilgan kafolatlar. Davlat xizmatchilarining tasnifi.

Davlat fuqarolik xizmati munosabatlarini tuzish va tugatilishi tushunchalari hamda huquqiy ahamiyati. Davlat fuqarolik xizmatchisi bilan mexnat shartnomasi. Davlat xizmati munosabatlari tugatilishi asoslarining turlari. Belgilangan yoshga yetish. Fuqarolikning bekor bo'lishi. Davlat va qonun bilan muhofaza etiladigan sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etish. Davlat xizmati munosabatlari tugatilishining boshqa turlari. Nafaqa.

O'zbekistonni vazirlik va idoralarida davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlash bosqichlari, ularni tayinlash. Tayinlangan davlat xizmatchilari faoliyatining huquqiy maqomi. Tayinlangan davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozimidan o'sishda ularga qo'yiladigan talablar. Lavozimdan o'stirish borasida qaror qabul qilish jarayonlari.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida davlat fuqarolik xizmatiga kadrlarni tanlash bosqichlari, ularni tayinlash. Tayinlangan davlat xizmatchilari faoliyatining huquqiy maqomi. Tayinlangan davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozimidan o'sishda ularga qo'yiladigan talablar. Lavozimdan o'stirish borasida qaror qabul qilish jarayonlari.

Davlat xizmatchilari o'z kasbiy faoliyatini qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik, davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik, adolatlilik, halollik va xolislik, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik prinsiplarini hayotga tadbiq etish mexanizmlari.

Davlat xizmatchisining odobi. Davlat xizmatchisiga etik talablar. Huquqiy ong tushunchasi va uning funksiyalari. Huquqiy tarbiya. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda qonunchilikning tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasida boshqaruv kadrlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish asoslari va yo'llari.

Davlat xizmatchilari o'z xizmat vazifalarini bajarishda shaxsiy manfaatlari ularning o'z xizmat vazifalarini xolisona va beg'araz bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar. Davlat xizmatchilarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek ular yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklarga ega bo'lishni oldina olish tizimi.

Davlat fuqarolik xizmatini o'tash tushunchasi va mohiyati. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash shakllari. Davlat xizmatiga kirish. Davlat mansabini egallashda sinov muddati. Davlat mansablarini egallash usullari. Davlat fuqarolik xizmatchisining xizmat bo'yicha harakatlanishi. Rotatsiya instituti.

Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning qonunchilik asoslari. Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash tizimi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining attestatsiyasi. Davlat fuqarolik xizmatchilarini rag'batlantirish asoslari va turlari. Davlat xizmatchilarining javobgarligi. Davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyatini baxolash usullari.

Davlat fuqarolik xizmatchilari uchun berilgan imtiyoz turlari, ularda foydalanish tartibi. Davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy himoya qilish shakllari va uning huquqiy asoslari. Davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy himoya qilishdagi muammolar va ularning yechimlari. Davlat fuqarolik xizmatchisi nafaqaga chiqqanda uning pensiya ta'minoti.

12.00.17. – DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSLARI IXTISOSLIGI BO‘YICHA OLIY TA‘LIMDAN KEYINGI TA‘LIM INSTITUTIGA KIRISH SINOVLARIDA BILIMLARNI BAHOLASH TARTIBI

Kirish imtihon savollari adolatli va xolisona shakllantiriladi. Har bir biletta 5 (besh) tadan savol bo‘ladi.

12.00.17. – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari ixtisosligi mutaxassislik fanlari kompleksi bo‘yicha tuziladigan savollar ushbu ixtisoslik uchun bazaviy hisoblangan magistratura mutaxassisliklarining o‘quv dasturiga to‘liq mos keladi.

12.00.17. – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari ixtisosligi bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kirish sinovlari mazkur ixtisoslik yuzasidan tayyorlangan dastur asosida tuzilgan savolnoma orqali og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va 100 ballik reyting tizimda baholanadi. Har bir savolnomada 5 ta savol keltirilgan bo‘lib, sinov davomida har bir kiruvchi savollar bo‘yicha jami 0-100 ballgacha, shu jumladan bitta savol bo‘yicha esa 0-20 ball to‘plashi mumkin.

Savolning quyidagi qirralari oydinlashtirilishi tegishli ballar orqali baholanadi:

1. Savollarga javoblarda me‘yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunchilik asoslariga izoh berilishi (maksimal 5 ballgacha).

2. Javoblarda keltirilgan savol yuzasidan masalaning nazariy asoslarini fikran to‘g‘ri bayon eta olinishi (maksimal 5 ballgacha).

3. Savollarga javoblarda keltirilgan masalaning amaliyotdagi holati bayon etilishi va statistik ko‘rsatkichlarning keltirilishi (maksimal 5 ballgacha).

4. Ko‘rilayotgan savol yuzasidan xorijiy tajribalardan misollar keltirilishi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari izohlanishi (maksimal 5 ballgacha).

Agar kiruvchi savolning har bir jihatiga to‘g‘ri va mukammal yondashuvi, savol yuzasidan keltirilgan faktlarni mustaqil fikrlab baholay olishi, shuningdek javobni tushunarli, tahlillarni aniq va ifodali bayon etib mantiqiy xulosa qila olishi natijasida yuqorida belgilangan mezonlar bo‘yicha maksimal ball qo‘yiladi.

Agar kiruvchi javoblarida har bir savolning mohiyati Hukumat qarorlari va Prezident Sh.Mirziyoyevning asarlaridan, sohaga oid qonunchilik asoslaridan foydalanilgan holda, hamda mustaqil fikrlanilgan, berilgan savollarga javoblarni tushunarli tarzda bayon etilgan va ilmiy ma‘lumotlarni umumlashtira olish salohiyatini namoyon eta olsa, unga 86 dan 100 ballgacha qo‘yilishi mumkin.

Agar savollarning mazmuni ochib berilib me‘yoriy-huquqiy hujjatlardan izohlar keltirilsa, lekin amaliyotdagi mavjud muammolar hamda xorijiy tajribalar to‘liq va aniq bayon etilmasa, unga 71 dan 85 ballgacha qo‘yilishi mumkin.

Agar savollarning barchasiga javoblar berilib, biroq fikrlar bayonida tarqoqlik kuzatilsa, javoblar qonun hujjatlari va amaliyot tahliliga to‘liq yondashilmasa, bunday holatda 56 dan 70 ballgacha qo‘yiladi.

Agar kiruvchi tomonidan savolnomadagi 2 va undan ko‘p savolga javob berilmagan bo‘lsa, berilgan javoblar hajmi va mazmunidan qat‘iy nazar, kiruvchiga 0 dan 55 ballgacha qo‘yiladi.

12.00.17. – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari ixtisosligi bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kirish sinovlari uchun belgilangan maksimal ballning 56 foizi va undan kam ball to‘plaganlar, shuningdek, belgilangan muddatlarda kirish imtihonlariga kelmaganlar navbatdagi kirish imtihonlariga kiritilmaydi va qabul qilinmaydi.

Akademiyada 12.00.17. – Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari ixtisosligi bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutiga kirish sinovlari uchun belgilangan tartibda apellyatsiya (norozilik) komissiyasining ishi tashkil etiladi.

Kiruvchi kirish imtihoni natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, kirish imtihoni natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat davomida kirish imtihonini apellyatsiya qilish haqidagi ariza bilan Akademiyaning “Ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar prorektori” yoki apellyatsiya (norozilik) komissiyasi raisiga murojaat etishi mumkin. Apellyatsiya haqidagi arizani ko‘rib chiqish muddati ikki ish kundan oshmasligi lozim.

Kirish imtihonini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda o'tkazilgan kirish imtihonining natijalari bekor qilinishi hamda ushbu imtihon qaytadan o'tkazilishi mumkin.

Kirish imtihoni bo'yicha kiruvchilarning bilimini baholash shu kunning o'zida amalga oshirilib qaydnomalarda rasmiylashtiriladi.

**12.00.17. – DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY ASOSLARI IXTISOSLIGI
BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
SIYOSATI VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI OLIY TA‘LIMDAN KEYINGI TA‘LIM
INSTITUTIGA KIRISH SINOVLARINING
SAVOLLARI**

1. “Boshqaruv” tushunchasi nimani anglatadi va uning asosiy turlari qanday?
2. Boshqaruv metodologiyasining mazmuni nimadan iborat?
3. Tizimli yondashuv boshqaruv jarayonida qanday rol o‘ynaydi?
4. Davlat boshqaruvi nazariyasi qaysi ilmiy maktablar va yo‘nalishlarga asoslanadi?
5. Davlat boshqaruvining mazmuni va boshqa boshqaruv shakllaridan farqi nimada?
6. Davlat boshqaruvi elementlari nimalardan iborat?
7. Davlat boshqaruvining asosiy va tashkiliy-funksional prinsiplari nimalardan iborat?
8. “Davlat boshqaruvi funksiyalari” tushunchasi qanday talqin qilinadi?
9. Davlat boshqaruv tizimida kadrlarni tanlash va tayinlashning asosiy mexanizmi qanday?
10. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan asosiy islohotlar nimalar?
11. “Davlat boshqaruvi subyektlari” tushunchasi qanday izohlanadi?
12. Davlat boshqaruvi subyektlarining huquq va muomala layoqati qanday belgilanadi?
13. Ijro hokimiyati va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik nimada?
14. Vazirlar Mahkamasining davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni qanday belgilangan?
15. Davlat boshqaruvi organlarining tasnifi qanday mezonlarga asoslanadi?
16. Ma‘muriy-huquqiy shakllarning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?
17. Ishontirish va majburlash usullari davlat boshqaruvida qanday qo‘llaniladi?
18. Ma‘muriy huquqning O‘zbekiston huquq tizimidagi o‘rni qanday?
19. Ma‘muriy jarayonning asosiy prinsiplari nimalardan iborat?
20. Ma‘muriy-protsessual normalar qanday turlarga bo‘linadi?
21. Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishning normativ-huquqiy asoslari nimalardan iborat?
22. Ruxsat berish faoliyatining huquqiy asoslari va tartib-taomillari qanday belgilanadi?
23. Ma‘muriy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
24. Davlat organlarining ma‘muriy javobgarlikka tortish vakolatlari qanday konstitutsiyaviy asosga ega?
25. Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida huquqiy ekspertizaning vazifasi nimadan iborat?
26. Mahalliy boshqaruv tushunchasi qanday ta‘riflanadi?
27. Davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruv o‘rtasidagi asosiy farqlar nimada?
28. O‘zini o‘zi boshqarish tizimining asosiy mazmuni nimadan iborat?
29. Mahalliy boshqaruvning huquqiy asoslari qaysi hujjatlar bilan belgilanadi?
30. Mahalliy ijro hokimiyati faoliyatini “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili bo‘yicha yo‘lga qo‘yishning mazmuni nimada?
31. Mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linishi qanday amalga oshiriladi?
32. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining bosh vazifalari nimalardan iborat?
33. Mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida “kuchli Kengash — hisobdor hokim” tamoyili qanday ishlaydi?
34. Xalq deputatlari Kengashlarining konstitutsion vakolatlari nimalardan iborat?
35. Hokimlarning konstitutsion vakolatlari qanday belgilangan?
36. Mahalliy boshqaruvda vakolatlarni vertikal va gorizontallik qanday amalga oshiriladi?
37. Mojaritar saylov tizimi mahalliy Kengashlarga saylovda qanday qo‘llaniladi?
38. Mahalliy Kengash sessiyasini chaqirish tartibi qanday?
39. Sessiyada kvorum qanday aniqlanadi va uning ahamiyati nimada?

40. Deputat mandati nima va uning asosiy shakllari qanday?
41. Mahalliy Kengash deputatining asosiy huquqlari nimalardan iborat?
42. Deputat so‘rovi nima va uni yuborish tartibi qanday?
43. Viloyat va tuman hokimlari qanday tartibda tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi?
44. Mahalliy davlat hokimiyati organlari qabul qiladigan hujjatlarning yuridik tabiati qanday?
45. Hokim qarorlarini qabul qilish jarayonining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
46. Hokim va uning o‘rinbosarlarining mahalliy Kengash oldidagi hisobdorligi qanday ta‘minlanadi?
47. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining NNTlar bilan hamkorligi qanday yo‘lga qo‘yiladi?
48. Nomarkazlashtirishning asosiy shakllari — dekonsentratsiya, delegatsiya va devolyutsiyaning farqi nimada?
49. Boshqaruvni nomarkazlashtirish jarayonidagi asosiy to‘siqlar nimalardan iborat?
50. Mahalla “yettiligi” tizimining mazmuni va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari qanday?
51. Davlat xizmati tushunchasi qanday ta‘riflanadi?
52. Davlat xizmatining asosiy turlari nimalardan iborat?
53. Fuqarolik davlat xizmati boshqa davlat xizmatlaridan nimasi bilan farqlanadi?
54. Davlat xizmatining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari nimada?
55. Davlat xizmatchisi tushunchasining tarkibiy elementlari nimalardan iborat?
56. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslari qaysi hujjatlar bilan belgilanadi?
57. Davlat xizmatini isloh etish zarurati nima bilan asoslanadi?
58. Davlat xizmatchilarining asosiy huquqlari nimalardan iborat?
59. Davlat xizmatchilarining majburiyatlari qanday belgilanadi?
60. Davlat xizmatida belgilangan cheklov va taqiqlarning maqsadi nimada?
61. Davlat xizmatchilariga beriladigan kafolatlar qanday turlarga bo‘linadi?
62. Davlat fuqarolik xizmati munosabatlari qaysi hollarda tugatiladi?
63. Davlat xizmatchisi bilan mehnat shartnomasi qanday tartibda tuziladi?
64. Davlat xizmatiga kadrlarni tanlashning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
65. Davlat xizmatchilarining lavozimdan o‘sishiga qo‘yiladigan talablar qanday?
66. Davlat xizmatchilarining xizmat vazifalarida manfaatlar to‘qnashuvi qanday yuzaga keladi?
67. Davlat xizmatchisining odob-axloq qoidalari nimalarni o‘z ichiga oladi?
68. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat davlat xizmatchilari faoliyatida qanday rol o‘ynaydi?
69. Davlat xizmatini o‘tash shakllari qaysilar?
70. Davlat mansabini egallashda sinov muddati nima uchun joriy etiladi?
71. Rotatsiya instituti davlat xizmatida qanday maqsadga xizmat qiladi?
72. Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash tizimining asosiy mezonlari qanday?
73. Davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o‘tkazishning maqsadi nimada?
74. Davlat xizmatchilarining javobgarligi qanday asoslarda yuzaga keladi?
75. Davlat xizmatchisini ijtimoiy himoya qilishning asosiy shakllari nimalardan iborat?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023. – 90 b.
- 2) O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Kengash Axborotnomasi, 1995-y., 3-son.
- 3) O'zbekiston Respublikasining “Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi 1991-yil 31-avgustdagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi, 1991, № 9-12, 268-modda.
- 4) O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi 1993-yil 2-sentyabrdagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993, № 9, 320-modda.
- 5) O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi 2020-yil 23-sentyabrdagi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y.
- 6) O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi 1999-yil 14-aprel Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1999, №5, 115-modda.
- 7) O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida”gi 2021-yil 28-iyuldagi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son.
- 8) O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi 2001-yil 29-avgust Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2001, № 9-10, 168-modda.
- 9) O'zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi 2022-yil 8-avgustdagi O'RQ-788-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2022-y., 03/22/788/0723-son.
- 10) O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida”gi 2003-yil 25-aprel Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2003, № 3-4, 34-modda.
- 11) O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida”gi 2019-yil 10-dekabrda Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2019-y., 03/19/591/4130-son.
- 12) O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida”gi 2007-yil 3-yanvar Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2007, № 1-2, 2-m.
- 13) O'zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi 2021-yil 20-apreldagi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son.
- 14) O'zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi 2014-yil 5-may Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 977-modda.
- 15) O'zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi 2014-yil 25-sentyabr Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2014, № 39, 488-modda.
- 16) O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi Qonuni, 2017-yil 11-sentyabr // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2014, № 49, 578-modda.
- 17) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 18-noyabrda “Elektron hukumat to'g'risida”gi Qonuni // O'zR QXT, 2015-y., 49-son, 611-modda
- 18) O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni // O'zR QXT, 2017-y., 1-son, 2-modda
- 19) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida”gi Qarori 05.03.2014-yildagi PQ-2142-son.

20) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4904-sonli Farmoni // O‘zR QXT, 2017-y., 1-son, 5-modda.

21) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4797-sonli Farmoni // O‘zR QXT, 2017-y., 6-son, 70-m.

22) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 15-fevralda 125-son Qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.02.2018-y., 09/18/125/0779-son, 04.06.2019-y., 09/19/457/3235-son

23) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonlari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta‘minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2007-yil 24-avgust Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2007, № 35-36, 355-modda.

24) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2010-yil 5-iyundagi Qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., № 23, 183-modda.

25) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 8-sentyabrda PF-5185-son, Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 9-sentyabr.

26) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 1-fevralda PQ-2750-sonli Farmoni. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 2-fevral.

27) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018-y., 06/18/5308/0610-son; 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-son.

28) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019-yil 17-yanvar.

29) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari dasturini ishlab chiqish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 22-noyabrda F-5-son farmoyishi // “Xalq so‘zi”, 2021-yil 23-noyabr.

30) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son

31) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.12.2022-y., 06/22/269/1117-son.

32) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-447-son Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 24.12.2022-y., 07/22/447/1118-son.

33) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvarda “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 25.01.2023-y., 06/23/14/0053-son.

34) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

Rahbariy adabiyotlar

- 1) Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halkimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-yil.
- 2) Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T. O‘zbekiston, 2016-yil – 56 bet.
- 3) Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. – T. O‘zbekiston, 2016-yil 7-dekabr – 47 bet.
- 4) Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T. O‘zbekiston, 2017-yil 14-yanvar – 102 bet.
- 5) Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T. O‘zbekiston, 2017. – 48 b.
- 6) Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T. O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
- 7) Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni kat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T. O‘zbekiston, 1-jild, 2017. – 592 b.
- 8) Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T. O‘zbekiston, 2-jild, 2018. – 512 b.
- 9) Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T. O‘zbekiston, 3-jild, 2019. – 400 b.
- 10) Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. – T. O‘zbekiston, 4-jild, 2020. – 452 b.
- 11) Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.

Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar:

- 1) Xusanov O.T. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.- T.: Yuridik adabiyotlash publish.- 2025. - 545 b.
- 2) Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik. // Mas’ul muharrir: A.Sh.Bekmurodov: – Toshkent: “Akademiya”, 2022. – 339 b.
- 3) Davlat xizmati. Darslik. // Mas’ul muharrir: Xusanov O.T. – Toshkent: “Akademiya”, 2025. – 554 b.
- 4) Davlat xizmati. O‘quv qo‘llanma / X.Azizov, A.Yo‘ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent, 2019-y. – 222 b.
- 5) Tadjixonov U. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik. - T.: Sharq, 2001. - 532 b.
- 6) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi - T.: TDYUI. 2008. - 452 b.
- 7) Asadov Sh. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. - T.: TDYUI. 2010. - 145 b.
- 8) Xusanov O.T. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.- T.: TDYUU.- 2013. - 545 b.

- 9) Davlat xizmati. O'quv qo'llanma / X.Azizov, A.Yo'ldoshev, Sh.Asadov, X.Xayitov, D.Karimov, D.Bekchanov, D.Atajanova, F.Yuldasheva. – Toshkent, “Tafakkur qanoti”, 2019-y. – 248 b.
- 10) Davlat boshqaruvi. Darslik // Mualliflar jamoasi. – Toshkent: “Akademiya”, 2021. – 416 b
- 11) Alimov X.R., Maxmudov A.A., Ismoilov N.T. Ma'muriy huquq. Darslik. 2-nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2003. - 367 b.
- 12) Xojiyev E., Xojiyev T. Ma'muriy huquq. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 608 b.
- 13) Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. B.597.
- 14) Ma'muriy huquq: Darslik / X.T. Odilqoriyev, I.Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. X.T. Odilqoriyev va B.E.Qosimovning

Monografiyalar, doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari

- 1) Axmedshayeva M.A. Davlat hokimiyati tizimida ijro hokimiyati: 12.00.01.-Davlat va huquq nazariyasi va tarixi; siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi: yuridik fan. dok. ilmiy daraja. olish uchun yozilgan disser. Avtoreferati.-T., 2010.-50 b.
- 2) Zulfqorov Sh.H. Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. 12.00.02.- Davlat huquqi va boshqaruv; ma'muriy huquq; moliyaviy huquq;-Yuridik fan. nomz. il. daraja olish uchun yozil. Dissert. Avtoref.- T.: TDYUI, 2008.- 26 b.
- 3) Rahimov F. Konstitutsiyaviy huquqlarni ta'minlashda davlat organlarining mas'uliyati. - T.: Ma'naviyat, 2001. - 128 b.
- 4) O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish muammolari. Monografiya / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. – 368 b.
- 5) Yakubov Sh.U. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish: Yurid. ... dokt. (DSc) dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – 66 b.
- 6) Xayitov X.S. Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yurid. ... dokt. (DSc) dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – 71 b.
- 7) Bekov I.R. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yurid. ... dokt. (DSc) dis. avtoref. – Toshkent: 2021. – 58 b.
- 8) Saidgaziyeva N. O'zbekistonda davlat xizmatini isloh qilishning nazariy va amaliy muammolari: Yuridik f. d-ri dis. - T.: TDYUI, 2010. - B. 206.
- 9) Якимов А.Ю. Статус субъекта административной юрисдикции и проблемы его реализации. Монография / А.Ю. Якимов. - М.: Проспект, 1999. - 200 с.
- 10) O'zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirish muammolari. Monografiya / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. – 368 b.
- 11) Yuldasheva F.U. O'zbekiston Respublikasida davlat xizmatiga kirish va o'tashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish: Yurid. ... fals. dokt. (PhD) dis. – Toshkent: 2021. – 152 b.
- 12) Raximov D.G'. Davlat fuqarolik xizmatini kadrlar bilan ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: Yurid. ... fals. dokt. (PhD) dis. – Toshkent: 2021. – 154 b.